

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING
IJTIMOIYLASHUVI VA JAMOAGA MOSLASHUVI**

*Farg'ona viloyat pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari
kafedrası professor-o'qituvchisi **Nurmatova Nargis***

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarning ijtimoiylashuvi va jamoaga moslashuvi jarayoni yoritilgan. Unda bolaning shaxs sifatida shakllanishi, muloqot ko'nikmalari, ijtimoiy me'yor va qoidalarini o'zlashtirish jarayoni, shuningdek tarbiyachi va ota-onaning bu jarayondagi o'rni tahlil qilingan. Muammolar va ularning yechimlari ko'rsatilib, ijtimoiy rivojlanishning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: bola, ijtimoiylashuv, jamoaga moslashuv, tarbiya, maktabgacha ta'lim, muloqot ko'nikmalari, ota-ona, tarbiyachi.

Inson jamiyatda yashar ekan, u albatta ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Bu jarayon bolalikdan boshlanadi va butun umr davom etadi. Ijtimoiylashuv – bolaning jamiyat me'yorlari, qadriyatlari, an'analari, odob-axloq qoidalarini o'zlashtirishi, o'zini jamoaning bir a'zosi sifatida anglash jarayonidir. Maktabgacha yosh – bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim davrlardan biri hisoblanadi. Shu bois bolani jamoaga moslashtirish, unda ijobiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish tarbiya jarayonining markaziy vazifalaridan biridir. Kelajak avlodni zamonamizning yetuk kishilari qilib tarbiyalash hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Bu borada bolalarni ilk yoshidan boshlab ijtimoiy hayotga moslashtirish okz menini anglatish. mustaqil va erkin bo'lishga o'rgatish muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodni bar tomonlama yetuk qilib tarbiyalash masalasiga katta e'tibor qaratilib. maktabgacha yoshdagi bolalar va ularning tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojiantirish Konsepsiyasida “Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama



intellektual, axloqiy, estetik va insoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish” masalasi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab qo‘yildi. Davlatimizda yoshlarga ilk yoshidan boshlab ta’lim-tarbiya berish mas’uliyatini yurtimizda faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘z zimmasiga olgan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga elemental- bilimlarni berish shakli faoliyatlardir. Ta’limiy faoliyatlarda bolalarni ijtimoiylashuv jarayoni, o‘z menini anglash qobiliyati shu bilan bir qatorda ulardagi psixologik va intellektual jihatlar rivojlanib boradi.

Ijtimoiylashuvning mohiyati

Bolaning ijtimoiylashuvi uch asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

1. Aloqa va muloqot ko‘nikmalari – bola kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qilishni o‘rganadi.
2. Me‘yor va qoidalarni o‘zlashtirish – “salomlashish”, “navbat kutish”, “hamkorlik qilish” kabi kundalik ijtimoiy me‘yorlarga amal qilishni egallaydi.
3. Shaxsiy xususiyatlarning rivoji – bola o‘z fikrini bildirish, mustaqil qaror qabul qilish, hamdardlik va mehribonlik kabi ijobiy xislatlarni namoyon eta boshlaydi.

Jamoaga moslashuv jarayoni

Jamoaga moslashuv – bolaning o‘zini guruh yoki sinfning teng huquqli a‘zosi sifatida his etishi demakdir. Bu jarayon odatda bosqichma-bosqich kechadi:

- Moslashuvning boshlanish davri: bola yangi guruhga kirganda biroz tortinchoq, o‘zini noqulay his qilishi mumkin.
- Faollashuv davri: asta-sekin suhbatga qo‘shila boshlaydi, o‘yinlarda faol ishtirok etadi, qiziqish bildiradi.
- Integratsiya davri: bola guruhning to‘laqonli a‘zosiga aylanadi, do‘stlari bilan muloqotda bo‘ladi, umumiy faoliyatda o‘zini erkin tutadi.

Tarbiyachi va ota-onaning roli

Bolaning jamoaga moslashuvi ko‘p jihatdan kattalarning yondashuviga bog‘liq.



- Tarbiyachi – guruhda qulay psixologik muhit yaratishi, o‘zaro hurmat, do‘stlik va hamkorlikka undashi kerak.
- Ota-ona – farzandining ijtimoiylashuvini qo‘llab-quvvatlashi, unda muloqot madaniyatini shakllantirishi zarur.
- Hamkorlik – tarbiyachi va ota-onaning hamkorligi bolaning ijtimoiy rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Muammolar va yechimlar

- Bola tortinchoq yoki ijtimoiy faol emas.
Yechim: kichik guruh o‘yinlari, qo‘shma topshiriqlar orqali ishtirokini rag‘batlantirish.
- Bola tajovuzkor yoki do‘stlariga qo‘pol munosabatda bo‘ladi.
Yechim: emotsional tarbiya, mehribonlik va sabr-toqat muhitida tarbiyalash, ijobiy namuna ko‘rsatish.

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida bolalarni ijtimoiylashuv jarayonining mazmun mohiyati. Ilk qadam davlat o‘quv dasturida ijtimoiylashuv jarayoniga alohida e’tibor berilib. ijtimoiylashuv — bu bolaning belgilangan tartib va odo-axloq qoidalariga rioya qilgan holda tengdoshlari va kattalar bilan birgalikda ishlash qobiliyatidir. Ijtimoiylashuv jarayoni bolaning belgilangan tartib va odo-axloq qoidalariga rioya qilgan holda tengdoshlari va kattalar bilan birgalikda ishlash qobiliyatidir. Bolalar ijtimoiylashuv jarayonida boshqalarni hurmat qilishni va ularning aytganlarini hisobga olishni o‘rganadilar. Guruhlarda samarali ishlash uchun zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalariga amal qiladilar. Muammoli vaziyatlarda ular yoshi va individual rivojlanish xususiyatlariga mos ravishda ularni hal qilish harakatlarini amalga oshiradilar. Ular tobora ko‘proq o‘zlarini guruhning bir qismi sifatida ko‘radilar va o‘z huquq hamda majburiyatlari borligini tushunadilar. Ular individual farqlarga ochiq. Bolalar boshqalar bilan uyg‘unlikda yashashlari mumkin. Ular turli insonlar bilan muloqot qilishadi va atrofdagilarning madaniy jihatdan xilmaxilligini tan oladilar, ularga yordam beradilar va qo‘llab-quvvatlay oladilar deya ta’kidlangan. Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom va rol, ijtimoiy xulq-atvorning me’yor va qoidalari haqida ko‘p



bilimlarni o'zlashtiradi. U shuningdek, uning jamiyatga ko'nikishiga yordam beruvchi turli ko'nikma va malakalarni ham o'zlashtiradi. Bu jarayon ayniqsa, bolalikda juda jadal amalga oshadi. Ma'lumki, bola besh yoshgacha uning keyingi hayotida o'z aksini topuvchi nihoyatda ko'p bilimlarni oladi. Bolalar ijtimoiylashuvining ajralib turuvchi xususiyati shuki, bola jamiyat ilgari surayotgan yurish-turish me'yorlariga baho berishi va nazorat qilishi qiyin. U ularni faqat tezlashtirib boradi. Shuning uchun bolalarning ijtimoiylashuv jarayonida ota-onalar, qarindoshlar, ular bilan ishlayotgan mutaxassislarning (psixolog, shifokor, pedagoglar) ta'siri katta bolib. Bolalarni hayotda zarur ijtimoiy bilimlarni ertaroq va yaxshiroq o'zlashtirishlari, ularni hayotda qo'llashga intilishlari aynan ularga bog'liqdir. Buning ijtimoiy pedagogika bilan bog'diqligi shundaki, maktab yoki boshqa ta'lim muassasasida ta'lim olish jarayonida ma'lumki bola, avvalo, akademik bilimlarni o'zlashtiradi. Biroq shu bilan bir paytda u muayyan tizimlashgan ijtimoiy bilim, ko'nikma va malakalarni qo'lga kiritadi. Bu bilim, ko'nikma va malakalar ijtimoiylashuv jarayonida bolaga maxsus yordam kerak bo'lganda juda zarur bo'ladi. Bolaning ijtimoiylashuviga yordam beradigan ijtimoiy bilimlarni bolaga yetkazish, unda ijtimoiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni ijtimoiy ta'lim deyiladi. Bolaning ijtimoiylashuvi, xususan, insonning ijtimoiy moslashuvi uning bilishga bo'lgan obyektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo'ladi. Biroq, bu bilan uzviy ravishda bola boshqa bir obyektiv ehtiyoj-o'ziga xosligini namoyon qilish hissi ham shakllanadi. Bola uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro'y beradi. Shaxsning faqat o'ziga tegishli bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari individual tarzda namoyon bo'ladi, uning ijtimoiy yurish-turishi takrorlanmas jihatlarga ega bo'ladi.

Xulosa

Bolaning ijtimoiylashuvi va jamoaga moslashuvi – uning kelgusida shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi jarayondir. To'g'ri tashkil etilgan tarbiya jarayoni bolaning ijtimoiy hayotga moslashishini osonlashtiradi, unda mas'uliyat, hurmat, hamkorlik va insonparvarlik kabi xislatlarni shakllantiradi. Shu sababli har



bir tarbiyachi va ota-ona bolaning ijtimoiy rivojiga mas'uliyat bilan yondashishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Yulbarsova X.A. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilaning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)., diss... avtoref.- Namangan, 2019. - 48 b.
2. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. O'quv qo'llanma. - Toshkent: "Ilm Ziyo", 2009. -192 b.
3. Norbutayev Kh.B. Natural intersubjects formation of ecological thinking in school pupils. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)
4.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=07f0edgAAAAJ&citation_for_view=07f0edgAAAAJ:9yKSN-GCB0IC
5. KOUCHING TEXNOLOGIYASI PEDAGOGIK KOMPETENTSIYANI OSHIRISH SHAKLI SIFATIDA I Tuychiyeva, M Hokimjonova, D Muqimova - ... : Innovative, educational, natural and social sciences, 2022